

“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonun ijrosini samarali tashkil etish bo‘yicha asosiy vazifalar va xorij tajribasi” mavzusida seminar tashkil etildi

// 05.07.2024

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/manfaatlar-to-qnashuvi-to-g-risida-gi-qonun-ijrosini-samaral>



Bugun “O‘zkiyosanoat” Ajda “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son Qonunining mohiyati va ahamiyati haqida jamiyat xodimlariga tushuntirish berish maqsadida “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonun ijrosini samarali tashkil etish bo‘yicha asosiy vazifalar va xorij tajribasi” mavzusida seminar tashkil etildi.

Seminarda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mas‘ul xodimi Nodira Samandarova, “O‘zkiyosanoat” AJ hamda tarmoq korxonalari mas‘ullari ishtirok etishdi.

Unda manfaatlar to‘qnashuviga oid kiritilayotgan yangi normalar, qonunning maqsadi va uni amalga oshirish bo‘yicha choralar, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, tashkilotlardagi maxsus bo‘linmalar hamda Odob-axloq komissiyasini manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari to‘g‘risida batafsil tushunchalar berildi.

Shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishning asosiy prinsiplari,

xodimlarning bu bilan bog'liq huquq va majburiyatlari, holat to'g'risida axborotni oshkor etishga hamda holatni aniqlashga doir choralar, qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik to'g'risida ma'lumotlar berildi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati

